RAUF PARFI IJODIDA NOODATIY BIRIKMALAR VA ULARNING IFODALANISHI

Rahimjonova Sadoqat Muzaffar qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi UZB-AU-25 guruhi 2-bosqich talabasi
E-mail: sadoqatrahimjonova29@gmail.com
Tel: +998508819007
Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) ***Irodaxon Ibragimova***
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23883088

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rauf Parfi ijodida uchraydigan noodatiy so‘z birikmalarining lingvopoetik xususiyatlari va ularning badiiy ifodadagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoirning she’riyatida so‘zlarning an’anaviy munosabatlardan o‘zgacha tarzda birikishi obraz yaratish va fikrni ta’sirchan ifodalashga yordam beradi. Tadqiqot natijasida Rauf Parfi ijodidagi noodatiy birikmalar shoir tafakkurining muhim ifoda vositalaridan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar. Noodatiy birikma, lingvopoetika, obraz, obrazlilik, uslub, ekspressivlik, ifoda.

Abstract. This article analyzes the lingvopoetic characteristics of unusual word combinations found in the work of Rauf Parfi and their role in artistic expression. In the poet's verse, the unconventional combination of words helps to create imagery and convey ideas effectively.

The study demonstrates that unusual word combinations in Rauf Parfi's work are an important expressive tool of the poet's thought.

Keywords. Unusual combination, linguopoetics, image, imagery, style, expressiveness, expression.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности необычных словосочетаний в творчестве Рауфа Парфи и их роль в художественном выражении. В стихах поэта нестандартные словосочетания способствуют созданию образности и эффективной передаче идей.

Исследование показывает, что необычные словосочетания в творчестве Рауфа Парфи являются одним из ключевых средств выражения мысли поэта.

Ключевые слова. необычное словосочетание, лингвопоэтика, образ, образность, стиль, выразительность, выражение.

O‘zbek she’riyatida “tuyg‘ular rassomi” deya ta’riflangan Rauf Parfi xilma

xil yo‘nalishlarga ega bo‘lgan zamonaviy o‘zbek adabiyotining she’riyat deb

nomlanuvchi gulshanida o‘ziga xos bog‘ barpo eta oldi[1]. Rauf Parfi o‘zining ko‘lamdor va go‘zal she’riyati bilan - ma’nodorlik, mazmun va mavzu qatlamlarining turfaligi, metaforalari va ohangdorligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. Shoir shaxsiyati o‘zgacha inson va bu ham uning ijodida yaqqol aks etadi. Shoirning poetik mahorati yuqori, lingvistik zahirasi juda boy. Uning she’riyatida so‘zning rang-barangligi aks etadi va tasviriy ifoda usullari keng qo‘llaniladi. Shoir poetik nuqtida ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi til birliklarini qo‘llaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoirning bunday noodatiy birikmalardan foydalanganligini asosiy sababi yangi poetik ma’no yaratish, adabiy tilning odatiy sintaktik yoki semantik bog‘lanishidan chetga chiqib, matn ta’sirida yangi obraz va ko‘chma ma’no hosil qilishdir. She’riyatda shoirning birovdan yashiradigan mahfiy narsasi yo‘q. Faqat, she’rning sir-asrori bo‘ladi. Bu – badiiyatga aylangan qismat. Taqdirning olov ko‘zlarini ko‘ngliga joylagan she’r. Rauf Parfi ilk she’rlaridanoq dunyoqarashi, ruhoniyati, ma’naviy e’tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o‘zligini namoyon qildi[2].

Rauf Parfining “Rassom” she’rida noodatiy birikmalar shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Qorlariga qorishdi osmon, Elay ketdi nurli changini,Qanday olsin bechora rassom

Bunday ma'yus sevinch rangini.

Avvalo, ushbu she’riy parchada “qorlariga qorishdi osmon” birikmasi obrazli ifodalanib osmonning qorlarga qorishib ketganligi tasvirlanib, tabiatning xira va g‘amgin manzarasi yaratilgan. “Nurli chang” birikmasida yorug‘likni changga o‘xshatish orqali quyosh nurining mayda va tarqoq

holati tasvirlangan va nurni elakdan o‘tkaziladigan narsadek tasavvur qilingan. “Ma’yus sevinch rangi” okkazional ikki so‘z birlashib go‘zallik va g‘amginlikni ifodalagan. Bu birikma tuyg‘uning tashqi ko‘rinishini anglatadi.

Uni izlar, topolmas, garang,
O'tga qo'ngan qor kabi behol...
Ko'zlarida turar o'sha rang.
Osmonlarga tikilar bekor…

“O‘tga qo‘ngan qor” birikmasi qarama-qarshi hodisalar birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, “tez yo‘qolish” va “ojizlik” ma’nolarini ifodalaydi. “O‘tga qo‘ngan qor kabi behol…” misrasida insonning holsizligi erib ketayotgan qorga qiyoslangan. “Ko‘zlarida turar o‘sha rang” jumlasida oddiy rangni emas, xotira yoki ruhiy kechinma ramzi tasvirlangan. “Osmonlarga tikilib bekor…” misrasida esa osmonga umid bilan qarab javob topa olmaslik holati yoritilgan.

Rauf Parfi ijodida kuzatilgan noodatiy birikmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir so‘zlarni faqat grammatik jihatdan emas, balki ularning semantik imkoniyatlaridan kelib chiqib biriktiradi. Bunday birliklarda mavhum va konkret tushunchalarning o‘zaro munosabati, rang bildiruvchi so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi hamda insoniy xususiyatlarning mavhum tushunchalarga ko‘chirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida Rauf Parfi ijodidagi noodatiy birikmalar faqat obrazlilikni ta’minlovchi vosita emas, balki shoirning borliqni individual idrok etish shakli ekanligi kuzatildi. Shoir konkret va mavhum tushunchalarni noodatiy semantik munosabatga kiritish orqali yangi poetik mazmun yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi ijodida noodatiy birikmalar muhim o‘rin tutadi. Shoir bunday birikmalar orqali oddiy so‘zlarga yangi va obrazli ma’no yuklaydi. Noodatiy birikmalar Rauf Parfi she’riyatida sog‘inch, iztirob, ruhiy kechinmani obrazli ifodalashga yordam beradi. Shuningdek, bunday birliklar shoirning o‘ziga xos poetik uslubini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madatova Habiba Ulug'bek qizi "Rauf Parfi lirikasi" - Urganch-2019 8-15-bet

2. Ibragimova Irodaxon Artikmashrabovna “Poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi (XX asr o‘zbek she’riyati misolida)” - Namangan – 2024

3. https://arxiv.uz/ru/documents/darsliklar/adabiyot/rauf-parfi-she-rlari-haqida-11-sinf

4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/rauf-parfi-sherlar-2.html

5. https://www.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Rauf%20Parfi.%20Ona%20Turkiston.pdf